

## NODAVLAT NOTIJORAT TASHKILOTLAR, ULARNI RIVOJLANTIRISH, QO‘LLAB QUVVATLASH VA BOSHQARISH

Xasanov Jaxongir Botir o'g'li

Oliy Majlis huzuridagi jamoat fondi bosh hisobchisi

E-mail: [903202221@mail.ru](mailto:903202221@mail.ru)

<https://doi.org/10.5281/zenodo.8080899>

*Annotatsiya.* Ushbu tezis nodavlat notijorat tashkilotlar, ularni rivojlantirish, qo‘llab quvvatlash va boshqarish hamda nodavlat notijorat tashkilotlar taraqqiyotning asosiy elementi hisoblanishi sir emas. Bugungi kun ijtimoiy-iqtisodiy holati ko‘rsatmoqdagi, jamiyat hayotida o‘z o‘rniga ega bo‘lishi uchun nodavlat notijorat tashkilotlari o‘z oldiga qo‘ygan vazifalarni og‘ishmay amalga oshirishi zarur.

**Kalit so‘zlar:** nodavlat notijorat tashkilot, jamiyat, taraqqiyot, tushuncha, metod.

## НЕКОММЕРЧЕСКИЕ ОРГАНИЗАЦИИ, ИХ РАЗВИТИЕ, ПОДДЕРЖКА И УПРАВЛЕНИЕ

*Аннотация.* Этот тезис не секрет, что НПО, их развитие, поддержка и управление, а также НПО являются ключевым элементом прогресса. Сегодняшняя социально-экономическая ситуация показывает, что для того, чтобы иметь место в жизни общества, необходимо, чтобы НПО без отклонений выполняли поставленные перед ними задачи.

**Ключевые слова:** НПО, общество, прогресс, концепция, метод.

## NON-PROFIT ORGANIZATIONS, THEIR DEVELOPMENT, SUPPORT AND MANAGEMENT

*Abstract.* It is not a secret that this thesis is considered a key element of the development of non-profit organizations, their development, support and management, and non-profit organizations. Today, the socio-economic situation shows that in order to have a place in the life of society, it is necessary that NGOs carry out their tasks without deviations.

**Key words:** non-profit organization, society, development, concept, method.

Mamlakatimizda mustaqillik yillarida amalga oshirilgan keng ko‘lamli islohotlar milliy davlatchilik va suverenitetni mustahkamlash, xavfsizlik va huquq-tartibotni, davlatimiz chegaralari daxlsizligini, jamiyatda qonun ustuvorligini, inson huquq va erkinliklarini, millatlararo totuvlik va diniy bag‘rikenglik muhitini ta‘minlash uchun muhim poydevor bo‘ldi, xalqimizning munosib hayot kechirishi, fuqarolarimizning bunyodkorlik salohiyatini ro‘yobga chiqarish uchun zarur shart-sharoitlar yaratdi.

Ma‘lumki, mamlakatimizning so‘ngi yillarida jamiyat hayotining barcha sohalarida demokratik o‘zgarishlarni amalga oshirishda nodavlat notijorat tashkilotlari hamda fuqarolik jamiyati boshqa institutlarining roli va ahamiyati, ijtimoiy faolligini oshirish bo‘yicha ta‘sirli va shuning bilan birga muhim chora-tadbirlar ko‘rilmogda.

Nodavlat notijorat tashkilotlari faoliyatining samaradorligini oshirishga qaratilgan 200 dan ortiq normativ-huquqiy hujjat qabul qilindi, ularni har tomonlama qo‘llab-quvvatlash uchun zarur institutsional baza yaratildi.

Bugungi kunda yurtimizda faoliyat ko‘rsatayotgan 9 200 dan ziyod nodavlat notijorat tashkiloti jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini,

demokratik qadriyatlarni himoya qilishda, ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy maqsadlarga erishishda muhim rol o'ynamoqda.

Ma'lumki, zamonaviy davlatlarda hukumat alohida olingan fuqarolarga nisbatan ular a'zo bo'lgan ijtimoiy guruhlar vositasida ta'sir ko'rsatadi. Chunki, ijtimoiy guruhlarni birlashishga, harakat qilishga undovchi kuch bo'lishi lozim. Albatta, bu kuchni ularning manfaatlari tashkil etishi kerak. Manfaatlar alohida ijtimoiy guruhlarning manfaatlari sifatida namoyon bo'lsa-da, bu guruhlarning a'zolari faqat mazkur bir guruhning a'zosi emas, balki bir vaqtning o'zida boshqa ijtimoiy guruhlarning ham a'zosi bo'lishi mumkin. Buning sababi shuki, har bir ijtimoiy qatlamning o'zi bir necha kichik guruhlariga bo'linib, ular bir-biridan malakasi, qanday mashg'ulot bilan bandligi va boshqa ijtimoiy belgilari bilan farqlanadi. Bundan ko'rinadiki, har bir guruh a'zosi ish joyida birinchi, bo'sh vaqtida ikkinchi guruhning a'zosi bo'lishi mumkin.

Mamlakat fuqarolarining ma'lum ijtimoiy guruhga mansubligidan kelib chiqib, nodavlat notijorat tashkilotlarga uyushishi natijasida manfaatlar uyg'unlashuvi ro'y beradi. Qaysi shaxsning qanday ijtimoiy guruhga a'zoligi, uning manfaatlaridan qay biri ustuvor va barqaror ahamiyatga ega ekanligidan kelib chiqib, u o'zi uchun muhimroq bo'lgan ijtimoiy guruhga a'zo bo'lishi mumkindir. Ana shunday ahamiyatli guruhlar ta'siri ijtimoiy tuzulmalar irodasini ifodalaydi. Hukumat esa, bu kabi guruhlar manfaatini doim e'tiborga olishi lozim hisoblanadi.

Mamlakatimizni 2017-2021-yillarda rivojlantirishning beshta ustuvor yo'nalishi bo'yicha "O'zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo'yicha Harakatlar strategiyasi to'g'risida" O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Farmoni qabul qilinib, unda davlat va jamiyat hayotining barcha sohalarini tubdan isloh etishga qaratilgan 300 ga yaqin qonun, 4 mingdan ziyod O'zbekiston Respublikasi Prezidenti qarorlari qabul qilindi.

Farmondan misol keltiradigan bo'lsak, davlat va jamiyat qurilishini takomillashtirishga yo'naltirilgan demokratik islohotlarni chuqurlashtirish va mamlakatni modernizatsiya qilishda parlamentning hamda siyosiy partiyalarning rolini yanada kuchaytirish, davlat boshqaruvi tizimini isloh qilish, davlat xizmatining tashkiliy-huquqiy asoslarini rivojlantirish, «Elektron hukumat» tizimini takomillashtirish, davlat xizmatlari sifati va samarasini oshirish, jamoatchilik nazorati mexanizmlarini amalda tatbiq etish, fuqarolik jamiyati institutlari hamda ommaviy axborot vositalari rolini kuchaytirish.

Shuningdek, mamlakatimizda yashayotgan insonlarning huquqlarini ta'minlash, davlat organlarining ochiqligini yanada kuchaytirish, shuning bilan birga fuqarolik jamiyati institutlarining ro'li hamda aholi va jamoat birlashmalarining siyosiy faolligini oshirish bo'yicha tizimli ishlar amalga oshirilmoqda.

Jamoat birlashmasi tushunchasi nodavlat notijorat tashkilot tushunchasidan oldinroq paydo bo'lgan. Demak, jamoat birlashmasi tushunchasining keng mazmunga egaligini Asosiy qonunda, qonunlarda, shuningdek ko'plab qonun osti hujjatlarida jamoat birlashmasi tushunchasi ko'p qo'llanilgani bilan izohlash mumkin. Shuningdek, ba'zi mualliflar "90 yillar o'rtalaridayoq nodavlat tashkilot atamasi" qo'llanilganini aytib o'tganlar. Bu borada boshqacha qarashlar ham mavjud, ya'ni konstitutsiyaviy asosga ko'ra "Jamoat birlashmalari to'g'risida"gi Qonun shu tizimga kiruvchi qonunlar uchun umumiy asos bo'lishi kerak. Lekin bu fikrga qo'shilish biroz noaniqliklarni keltirib chiqarishi mumkin. Chunki fikrimizcha, jamoat

birlashmasi nodavlat notijorat tashkilotning turi bo'lgan "jamoat fondi" tushunchasini o'zida qamrab olmaydi.

Shuningdek, "jamoat tashkiloti nodavlat notijorat tashkilotning tashkiliy-huquqiy shakli sifatida fondlar va boshqa shakllar qatorida ko'rilishi kerak". G'arb adabiyotlarida uchta asosiy belgini: "nodavlat, notijorat va ixtiyoriylik" ni o'zida jamlagan tashkilotlarni jamoat tashkilotlari deb ataydilar. Bu haqida Sh.Nazarov "jamoat tashkilotlari faoliyatiga oid qonun hujjatlarida "jamoat tashkiloti" va "jamoat birlashmasi" tushunchalari o'rtasida muayyan definitsiya ko'rsatilmaganligi natijasida tegishli amaliyotda bir qator tushunmovchiliklar kelib chiqayotganligini ta'kidlash joiz. Shuni e'tiborga olgan holda, bizning fikrimizcha, mazkur jamoat tashkilotlari faoliyatini tartibga soluvchi qonunlarni umumlashtirib "Nodavlat notijorat tashkilotlari va jamoatchilik birlashmalari to'g'risida"gi deb nomlash to'g'ri bo'ladi".

Nodavlat notijorat tashkilotlari umuman keng miqyosda olganda jamoat birlashmalari tizimida oraliq o'rinni egallagan holda huquqiy jihatdan asoslangan ijtimoiy tushunchadir. Oraliq o'rinni egallashi deganda barcha jamoat birlashmalarining tub negizi qisman nodavlat notijorat tashkilotlariga kelib tutashadi. Masalan: jamoat birlashmalarining turi bo'lgan kasaba uyushmasi va siyosiy partiya tuzilishida ham fuqarolarining manfaatlar va maqsadlar mushtarakligi dastlabki o'ringa qo'yiladi. Nodavlat notijorat tashkilotlari jismoniy va yuridik shaxslarning huquqlari va qonuniy manfaatlarini ifodalashi hamda himoya qilishi asosiy maqsadlaridan biri sanaladi.

Nodavlat notijorat tashkilotini tuzishning umumiy maqsadi ijtimoiy foydali manfaatlarining qondirilishida aks etishi ifodalanadi. O'zbekiston Respublikasining "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi Qonunida ijtimoiy foydali manfaatlarini ifoda etuvchi faoliyat turlari alohida ta'kidlangan bo'lib, ular quyidagilar:

- jismoniy va yuridik shaxslarning qonuniy huquq va manfaatlarini himoyalash;
- demokratik qadriyatlarni himoya qilish;
- ijtimoiy, madaniy va ma'rifiy ahamiyatga molik faoliyat maqsadlarga erishish;
- ma'naviy va boshqa xildagi nomoddiy ehtiyojlarni qondirish;
- xayr-saxovat ishlarini amalga oshirish.

Mazkur qayd etilgan faoliyat turlaridan nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifalari kelib chiqadi. Fikrimizcha, nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifasini tahlil etishda "maqsad", "vazifa" va "funksiya" tushunchalarining o'zaro munosabatlariga e'tibor qaratish lozim. Buning uchun nodavlat notijorat tashkilotlari maqsadining shakllanishida uning ijtimoiy burchi namoyon bo'lishi, bu maqsadga erishish uchun aniq vazifalarni bajarish zarurligi hamda bu holat tegishli funksiyalarni amalga oshirishni taqozo etishini yodda tutishimiz kerak. Ayni paytda "funksiya" va "vazifa" bir-biridan ajralmas tushunchalar ekanligini ta'kidlash joiz. Vazifalar va funksiyalarning ta'riflari ham bir-biriga o'xshab ketadi. Buning boisi shundaki, nodavlat notijorat tashkilotlari va jamiyat oldida muayyan vazifalar ko'ndalang turgan bo'lsa, ularga taalluqli funksiyalarni ham amalga oshirish zarurati vujudga keladi. Aks holda nodavlat notijorat tashkilotlarining vazifalari bajarilmay qolib ketishi mumkin.

Shunday qilib, vazifa ikki xil zaruratni, ya'ni biron-bir maqsadga erishish hamda muayyan faoliyat turi bilan shug'ullanishni o'z ichiga oladi.

Nodavlat notijorat tashkiloti tashkil etilib o'zlariga yuklatilgan vazifalarni xolisona amalga oshirishining afzallik tomonlari quyidagilardan iborat:

- aholi o'rtasida ishsizlik kamayib, yangi ish o'rinlari yaratiladi;
- insonlar ma'lum bir g'oya atrofida birlashib, ijtimoiy hayotdagi ba'zi muammolarini hal qilinishiga o'z hissalarini qo'shadilar;
- aholi bo'sh vaqtdan unumli foydalanib, jamiyat uchun zararli illatlardan yiroqlashadilar;
- tashkilotdagi ish jarayonida yoshlarda hayotiy ko'nikma hosil bo'ladi va mustaqil hayotga tayyorlanadilar va h.k.

Jamiyat hayotidagi mavjud muammolarni hal etish uchun nodavlat notijorat tashkilotlari o'z faoliyatlarini takomillashtirishlari va bu borada ba'zi vazifalarni amalga oshirishlari zarur. Nodavlat notijorat tashkilotlarining jamiyatdagi vazifalarini o'rganib tadqiq qilgan olimlar S.Jo'raeva, A. Gonorskaya, Sh.Nazarovlar asosan bu borada umumiy va asoslantirilgan fikrlarni berib o'tadilar. S.Jo'raeva fuqarolik jamiyati institutlarining vazifalari sifatida ko'proq siyosiyhuquqiy jihatiga e'tibor qaratadi. Jumladan, "aholining siyosiy hayotda faol ishtirok etishiga ko'maklashish o'z ta'sir doirasidagi fuqarolarni hukumat tomonidan qabul qilingan yoki tayyorlanayotgan qarorlar to'g'risida xabardor qilish, qaror qabul qilish jarayoniga ta'sir ko'rsatish yo'llarini tushuntirish" deb qayd etilgan.

Shuningdek, tadqiqotchi S.Jo'raevaning fuqarolik jamiyati institutlarining "jamiyatdagi nizolarni hal qiluvchi institut vazifasini o'tash" borasidagi fikrlari biroz noaniq ifodalangan. Aynan qaysi turdagi nizolarni nodavlat notijorat tashkilot hal etishi mumkinligi masalasi ochiq qoldirilgan. Fikrimizcha, iqtisodiy nizolarni hal qilish uchun qonun hujjatlariga muvofiq hakamlik sudlarini tashkil etish orqali Savdo-sanoat palatasi hal qilsa, kasbiy nizolarni kasaba uyushmalari o'z vakolatlari doirasida ko'rib chiqadilar. A.V.Gonorskaya nodavlat notijorat tashkilotlarining ko'proq moliyaviy vazifalariga etibor qaratib, "chet el donorlaridan mustaqil" bo'lishlari lozimligini, shuningdek faoliyat yuritish chegarasini "yirik shaharlar chegarasida, qishloq tumanlarida faollashtirib kengaytirishni" nazarda tutadi.

Fikrimizcha, yuqorida aytib o'tgan vazifalarni amalga oshirish uchun nodavlat notijorat tashkilotlarning professionalligini oshirish, ular ishlayotgan sohada tajribaga ega bo'lish, turli ish metodlari, modellari va vositalarni jalb qilish san'atini bilishlari lozim.

Nodavlat notijorat tashkilotining samarali rivojlanishi uchun davlat, biznes va nodavlat notijorat tashkiloti o'rtasidagi, shuningdek, harakat ichidagi hamkorlik aloqalarini kuchaytirish lozim.

#### REFERENCES

1. Hamidova K. O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasi va jamoat birlashmalari. Risola. – Toshkent: TDYuI, 2015.
2. Nazarov Sh.N. O'zbekistonda fuqarolik jamiyatini shakllantirishda jamoat tashkilotlarining roli (nazariy va huquqiy masalalar):Avtoref.dis. yurid.fan nom.-Toshkent, 2019.
3. "Nodavlat notijorat tashkilotlari to'g'risida"gi O'zbekiston Respublikasi Qonuni // O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisining Axborotnomasi. – 2009
4. Jo'raeva S. Fuqarolarning siyosiy madaniyatini yuksaltirishda fuqarolik jamiyati institutlarining roli // Demokratlashtirish va inson huquqlari. – 2019.